

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**“SIVILIZATSIYALAR CHORRAHASIDAGI O‘LKA:
MARKAZIY OSIYO TARIXINING YANGI TADQIQOT
YO‘NALISHLARI VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**

**GULISTON
2026**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**«SIVILIZATSIYALAR
CHORRAHASIDAGI O‘LKA:
MARKAZIY OSIYO TARIXINING YANGI
TADQIQOT YO‘NALISHLARI VA
METODOLOGIK YONDASHUVLAR»**

**MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

(15-16-may, 2026-yil)

<i>Abdumatov A.A., Xaydarova M.L.</i>	BUYUK IPAK YO‘LI DAVRIDA MIRZACHO‘L VOHASIDA URBANISTIK JARAYONLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	335
<i>Mamatov Sh.M.</i>	ARAB-FORS MANBALARIDA CHOCH VOHASI QISHLOQLARI VA ULARNING GEOGRAFIK TAVSIFI.....	338
<i>Ne‘matov R.A., Ummatova N.Z.</i>	ZAMONAVIY TA‘LIM TIZIMIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGI VA PEDAGOG SHAXSINING ROLI.....	339
<i>Ne‘matov R.A., Shaxobiddinov A.O.</i>	MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON–XITOIY MUNOSABATLARINING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....	341
<i>Toshtemirov D.E.</i>	O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH.....	344
<i>Norboyeva S.M.</i>	O‘QUV MASHG‘ULOTLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	346
<i>Usmanova G.B.</i>	O‘QUV JARAYONIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	349
<i>Ummatova S.T.</i>	O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR TA‘LIMINI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATI: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR.....	351
<i>Xoliqov U.Q.</i>	SHAXMAT O‘YINI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA MANTIQUIY TAFAKKUR VA IRODAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	353
<i>Бомуров М.Ш.</i>	МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАРИМИЗ-МАЎНАВИЯТИМИЗ ЎЗАГИ.....	355
<i>Nasriddinov M.U.</i>	TIL VA MADANIYAT ALOQADORLIGI.....	357
<i>Tangirberdiev Sh.G.</i>	HURFIKRLILIK: G‘OYALAR VA OQIMLAR ILK QADAMLARI HAQIDA.....	359
<i>Botirova Sh.K.</i>	IQTIDORLI YOSHLAR BILAN ISHLASHDA XORIJIY TAJRIBANING AHAMIYATI.....	361
<i>Umarova A.U.</i>	BOZOR: TARIX VA TAHLIL.....	362
<i>Turdikulov O.T.</i>	YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA‘LIM XALQAROLASHUVINI TADQIQ ETISHDA ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIK VA INTERDISTSIPLINAR YONDASHUVLAR (“EL-YURT UMIDI” JAMG‘ARMASI MISOLIDA).....	364
<i>Курбанбаева М. К.</i>	МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МИЛЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ РИВОЖИ ВА ЖУМЕК ЎРИНБОВЕВНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ.....	366
<i>Qudratov D.T.</i>	O‘ZBEKISTONNING ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDAGI FAOLIYATI VA ISTIQBOLLARI.....	368
<i>Мамадалиев И.А.</i>	ИМПЕРИЯ МАКОНИДА ЧЕГАРАЛАРНИ ЛОЙИХАЛАШ – ЗАМОН ВАБОСИ.....	370
<i>Валиев А. Х.</i>	ЭВОЛЮЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	372
<i>Shukurova S.N.</i>	OIV INFEKSIYASINING IJTIMOIY OMILLARINI INNOVATSION TA‘LIM ORQALI O‘RGATISH.....	375
<i>Niyazov A.A.</i>	CHOR ROSSIIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA O‘RTA OSIYODA TEMIR YO‘L TARMOQLARINING O‘TKAZILISHI.....	377
<i>Umarqulova G.F</i>	JIZZAX VILOYATI CHO‘L TUMANLARI TARIXINI O‘RGANISHDA LOKAL TARIX (LOCAL HISTORY) METODINING AHAMIYATI.....	380
<i>Yuldasheva G. K.</i>	TARIX DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	382
<i>Давурова Ш.Х</i>	БУХОРО АМИРЛИГИ ИЧКИ ВА ТАШҚИ САВДО АЛОҚАЛАРИДА КАРВОН ЙЎЛЛАРИНИНГ ЎРНИ (1756-1868).....	385
<i>Jabborov I.X.</i>	MARKAZIY OSIYO KARVON YO‘LLARI VA ULARDA LOGISTIKA XIZMATI: TARIXIY TAHLIL.....	390

ARAB-FORS MANBALARIDA CHOCH VOHASI QISHLOQLARI VA ULARNING GEOGRAFIK TAVSIFI

Mamatov Sh.M., GulDU

Choch vohasi qadimdan O'rta Osiyoning yirik tarixiy-geografik hududlaridan biri hisoblanib, u Sirdaryo havzasining muhim qismi sifatida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda alohida o'rin tutgan. Vohaning tabiiy-geografik qulayligi, Chirchiq va Ohangaron kabi yirik suv manbalarining mavjudligi bu hududda qadimdan o'troq aholi manzilgohlarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratgan. Ayniqsa, rivojlangan o'rta asrlarda Choch vohasida ko'plab shahar va qishloqlar paydo bo'lib, ular sug'orish tizimi hamda savdo yo'llari bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etgan.

Rivojlangan o'rta asrlar yozma manbalarida Choch vohasining qishloqlari, ularning geografik joylashuvi, tarixiy nomlari va tabiiy muhiti haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Xitoy yilnomalari, arab-fors geograflari hamda mahalliy tarixiy asarlarda vohadagi aholi manzilgohlari toponimlari va topografik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Ayniqsa, Ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy kabi mualliflarning asarlarida Choch vohasining obod qishloqlari, oqar suv tarmoqlari va sug'orish tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Mazkur maqolada rivojlangan o'rta asrlarda Choch vohasi qishloqlarining toponomik va topografik xususiyatlari yozma manbalar asosida tahlil qilinib, aholi manzilgohlarining joylashuvi, tarixiy nomlari hamda ularning voha taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi.

Mazkur tadqiqot tarixiylik, tizimlilik va xolislik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Maqolada rivojlangan o'rta asrlarda Choch vohasi qishloqlarining toponomik va topografik xususiyatlarini yoritishda tarixiy-geografik hamda manbashunoslik metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida arab-fors geograflari, xitoy yilnomalari va boshqa yozma manbalardagi ma'lumotlar qiyosiy-tahliliy usul asosida o'rganildi. Xususan, Ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy va «Hudud ul-olam» asarlarida uchraydigan toponimlar zamonaviy geografik hududlar bilan solishtirildi. Shuningdek, qishloq manzilgohlarining joylashuvi, suv tarmoqlari bilan bog'liqligi hamda tarixiy nomlarining shakllanishini aniqlashda tarixiy-topografik va komparativ tahlil metodlari qo'llanildi. Tadqiqot natijasida Choch vohasi qishloqlarining rivojlangan o'rta asrlardagi hududiy joylashuvi va tarixiy-geografik taraqqiyoti haqida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Choch vohasining tarixiy geografiyasi, qishloq manzilgohlari, toponimikasi va topografiyasi masalalari sharq va g'arb olimlari tomonidan turli davrlarda tadqiq etilgan. Ushbu mavzuni o'rganishda arab-fors geograflari asarlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Istaxriyning «Kitab al-masolik val-mamolik» asarida Choch vohasining tabiiy-geografik muhiti, shahar va qishloqlari, suv tarmoqlari hamda irrigatsiya tizimi haqida muhim ma'lumotlar uchraydi [1]. Muallif vohaning keng hududni egallagani, qishloqlarning obodligi va oqar suvlar bilan ta'minlanganini alohida ta'kidlaydi.

Ibn Havqalning «Kitob surat al-ard» asari ham Choch vohasi toponimlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Asarda vohadagi ko'plab shahar va qishloq nomlari sanab o'tilib, ularning geografik joylashuvi haqida ma'lumotlar keltiriladi [2]. Ushbu ma'lumotlar Choch vohasining rivojlangan o'rta asrlardagi topografik tuzilishini tiklash imkonini beradi. «Hudud ul-olam» asarida esa Choch vohasining tog'li hududlari, xususan Chatqol va Chirchiq havzasidagi aholi manzilgohlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi [3]. Mazkur manba orqali vohadagi qishloqlarning iqtisodiy hayoti, bog'dorchilik va chorvachilik bilan bog'liq jihatlarini ham kuzatish mumkin.

Zamonaviy tadqiqotchilar orasida Yu.F. Buryakov Choch vohasi shahar madaniyati va urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq etgan bo'lsa [4], G'. Boboyorov va A. Xodjayevlar Choch tarixiy geografiyasi hamda xitoy manbalaridagi Shosh haqidagi ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilganlar [5]. Ushbu tadqiqotlar Choch vohasi qishloqlarining tarixiy topografiyasi va toponimikasini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan o'rta asrlarda Choch vohasi O'rta Osiyoning eng yirik va obod tarixiy-geografik hududlaridan biri sifatida shakllangan. Yozma manbalarining tahlili vohada shahar va qishloq manzilgohlari soni boshqa ko'plab hududlarga nisbatan ko'proq bo'lganini ko'rsatadi. Xitoy yilnomalarida Choch hududida o'nga yaqin yirik shahar mavjudligi qayd etilgan bo'lsa [1], arab-fors

geograflari ushbu vohaning keng qishloq tarmoqlari va rivojlangan irrigatsiya tizimiga ega ekanini ta'kidlaydilar [2].

Tahlillar natijasida Choch vohasidagi qishloq manzilgohlari asosan Chirchiq va Ohangaron daryolari havzasida shakllangani aniqlandi. Vohadagi qishloq va shaharlarda oqar suvlarning mavjudligi sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga imkon yaratgan. Istaxriy va Ibn Havqal ma'lumotlariga ko'ra, vohadagi ko'plab qishloqlar ariqlar va suv tarmoqlari bilan bog'liq holda taraqqiy etgan [3]. Ayniqsa, Chirchiq dararyosi havzasidagi Parkent, Gazalkent, Soyliq, Ardlonkat kabi manzilgohlar iqtisodiy va strategik jihatdan muhim hududlar hisoblangan.

Manbalardagi toponimlarning tahlili Choch vohasida turkiy va sug'diy qatlamlarning o'zaro uyg'unlashganini ko'rsatadi. Jumladan, Papak, Jidg'il, Soyliq kabi nomlar turkiy kelib chiqishga ega bo'lsa, Naxnoh, Xumborak, Pargus kabi toponimlar sug'diy til qatlamiga mansubligi bilan ajralib turadi [4]. Bu holat vohada turli etnik va madaniy guruhlarning uzoq davr davomida birgalikda yashaganini ko'rsatadi. Shuningdek, Choch vohasining tog'li hududlari – Chatqol va Chirchiqning yuqori oqimidagi aholi manzilgohlari ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu hududlarda bog'dorchilik, chorvachilik va yilqichilik rivojlangan bo'lib, tog' yo'llari orqali Talas va Farg'ona vodiysi bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan [5]. Ayniqsa, Ardlonkat (Burchmulla) va Sijjak kabi manzilgohlar tog'li hududlarning ma'muriy hamda iqtisodiy markazlari vazifasini bajargan.

Natijada, rivojlangan o'rta asrlarda Choch vohasi qishloqlarining shakllanishi va rivojlanishida tabiiy-geografik omillar, suv tarmoqlari hamda savdo yo'llari muhim rol o'ynagani aniqlandi. Vohadagi toponimlar esa hududning etnomadaniy va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Yozma manbalar tahlili Choch vohasida rivojlangan irrigatsiya tizimi mavjud bo'lganini, qishloqlarning esa tabiiy-geografik sharoit va suv manbalariga yaqin hududlarda joylashganini ko'rsatadi. Vohadagi toponimlar tarkibida turkiy va sug'diy til qatlamlariga oid nomlarning uchrashi esa hududning ko'p madaniyatli va murakkab etnik tarkibga ega bo'lganidan dalolat beradi. Shuningdek, Chatqol va Chirchiq havzasidagi tog'li hududlarda joylashgan aholi manzilgohlari savdo yo'llari va iqtisodiy aloqalarda muhim o'rin tutgan. Ardlonkat, Sijjak, Soyliq, Gazalkent kabi manzilgohlar vohaning iqtisodiy va ma'muriy hayotida alohida ahamiyat kasb etgan.

Umuman olganda, Choch vohasi qishloqlarining toponomik va topografik xususiyatlarini yozma manbalar asosida o'rganish vohaning tarixiy geografiyasi, etnomadaniy jarayonlari hamda o'rta asrlardagi aholi manzilgohlari tizimini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Йўллар ва ўлкалар китоби. Хуросон ва Мовароуннахр / таржима ва изоҳлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 172–176.
2. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр / таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. – Б. 240–257.
3. Худуд ул-олам (Мовароуннахр тавсифи) / форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи О. Бўриев. – Тошкент, 2008. – Б. 17–32.
4. Буряков Ю. Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982. – 184 с.
5. Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар (илк ўрта асрлар). – Тошкент: Yangi nashr, 2010. – Б. 31–45; Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш // О'zbekiston tarixi. – 2005. – №1. – С. 11–12.

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGI VA PEDAGOG SHAXSINING ROLI

Ne'matov R.A. – o'qituvchi, Ummatova N.Z. – talaba, GulDU

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ta'lim-tarbiya tizimini samarali boshqarish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimining sifatli faoliyati ko'p jihatdan uni boshqaruvchi shaxs – pedagog rahbarining kasbiy mahorati, tashkilotchilik qobiliyati hamda axloqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Chunki pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi va uni boshqaruvchi muhim subyekt hisoblanadi.